


## 2019-yil 1-sentyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'mida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 3996 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1867 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4046 ta (19,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 24915 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-sentyabr holatiga 24915 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,4 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,4 % savdo, 13,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13,1 % sanoat, 12,4 % qurilish, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,1 % axborot va aloqa hamda 26,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.09.2019 yil	
	01.09.2018 yil	01.09.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	20869	24915	4046	100

shundan:

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2669	3292	623	13,2
Sanoat	2402	3263	861	13,1
Qurilish	2561	3078	517	12,4
Savdo	4818	5837	1019	23,4
Tashish va saqlash	753	877	124	3,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	865	1113	248	4,5
Axborot va aloqa	245	286	41	1,1
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	469	584	115	2,3
Boshqa turlari	6087	6585	498	26,5

Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5292 ta), Chiroqchi (2047 ta), Koson (1976 ta), Qarshi (1923 ta) va Kitob (1680 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (839 ta), Muborak (902 ta) hamda Nishon (927 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 24280 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3999 ta (19,7 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,5 % savdo, 13,2 % sanoat, 13,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,3 % qurilish, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 26,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

13,2 %



Sanoat

23,5 %



Savdo

12,3 %



Qurilish

1,1 %



Axborot va aloqa

4,5 %



Yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar

3,5 %



Tashish va saqlash

13,1 %



Qishloq, o'rmon va  
baliq xo'jaligi

2,4 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy  
xizmatlar ko'rsatish


26,5 %



Boshqa turlari

Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5051 ta), Chiroqchi (2013 ta), Koson (1928 ta), Qarshi (1879 ta) va Kitob (1655 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (835 ta), Muborak (868 ta) hamda Nishon (922 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


### Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar- avgust oylarida 3996 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko'pdir.

### Yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Qarshi shahri (791 ta), Chiroqchi (346 ta), Qarshi (335 ta) va Yakkabog' (270 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Muborak (112 ta), G'uzor (142 ta), Dehqonobod (148 ta), Nishon (174 ta), Mirishkor (212 ta) hamda Koson (228 ta) tumanlari korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettigan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1135 ta), sanoat (870 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (625 ta), qurilish (467 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (37 ta), sog'lqnii saqlash va ijtimoiy xizmatlar (95 ta), hamda tashish va saqlash (105 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tijorat korxonalari**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2019-yil 1- sentyabr holatiga 19531 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 8259 ta, oilaviy korxonalar - 1025 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 9741 ta va boshqalar 506 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat  
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiyligi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


Mas'uliyati  
cheklangan jamiyati



Xususiy korxona




Oilaviy  
korxona




Unitar korxona



Aksiyadorlik  
jamiyati



Boshqalar




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1- sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 167 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 99 taga yoki 2,4 % matraga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


2019-yil 1-sentyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 167 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqori Qarshi shahri (50 ta), Qarshi (15 ta), Kitob (14 ta) va Nishon (13 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirishkor tumani (4 ta) va Shahrisabz shahar (4 ta) hissalariga to'g'ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda

- Boshqa turlari
- Eron Islom Respublikasi
- Turkiya Respublikasi
- Koreya Respublikasi
- Qozog'iston Respublikasi
- Afg'oniston
- Rossiya Federatsiyasi
- Xitoy Xalq Respublikasi




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 126 tasi qo'shma korxonalar, 41 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



### Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>8167</b>	<b>100</b>
Qarshi sh.	50	29,8
Shahrisabz sh.	4	2,4

*Tumanlar:*

G'uzor	88	4,8
Dehqonobod	118	4,8
Qamashi	1511	6,6
Qarshi	1015	9,0
Koson	1410	6,0
Kitob	414	8,4
Mirishkor	74	2,4
Muborak	137	4,2
Nishon	513	7,8
Kasbi	65	3,0
Chiroqchi	56	3,6
Shahrisabz	75	3,0
Yakkabog'	507	4,2


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar- avgust oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 76 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61 taga ko'paygan. Tumanllar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahar (50 ta yoki jamidagi ulushi 29,9 %), Qarshi tumani (15 ta yoki 9,0 %) va Kitob tumanlari (14 ta yoki 8,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Shahrисабз shahar (4 ta yoki 2,4 %), Mirishkor tumani (4 ta yoki 2,4 %) va Kasbi tumani (5 ta yoki 3,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-avgust oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 9 ta, Qozog'iston Respublikasi - 9 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 9 ta, Turkiya Respublikasi - 8 ta va Afg'oniston - 8 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-avgust oylarida Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (47 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (11 ta), savdo (6 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (5 ta), faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (1 ta) tashkil etgan.

## 2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



### Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1- sentyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 19373 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1- sentyabr holatiga qaraganda 20,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4187 tasi (21,4 %) Qarshi shahri, 1591 tasi (8,2 %) Qarshi, 1563 tasi (8,1 %) Koson tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

### • Eng katta ulushi

•Qarshi sh.  
21,4 %

•Chiroqchi  
8,2 %

•Qarshi  
8,1 %

•Koson  
8,1 %

•Shahrisabz sh.  
6,9 %

•Kitob  
6,8 %

Qamashi  
6,7 %

•Yakkabog'  
6,5 %

### • Eng kichik ulushi

•Dehqonobod  
4,8 %

•G'uzor  
4,4 %

•Shahrisabz  
4,2 %

•Kasbi  
3,7 %

•Nishon  
3,6 %

•Muborak  
3,5 %

•Mirishkor  
3,1 %


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19373 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5662 tasi (29,2 %) - savdo, 3157 tasi (16,3 %) - sanoat, 3142 tasi (16,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2974 tasi (15,4 %) - qurilish, 1066 tasi (5,5 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 830 tasi (4,3 %) - tashish va saqlash, 432 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1842 tasi (9,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-avgust oylarida 3686 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,8 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahri (733 ta), Chiroqchi (323 ta), Qarshi (294 ta) va Yakkabog' (259 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muborak (104 ta), Dehqonobod (133 ta), G'uzor (135 ta), Nishon (156 ta) hamda Mirishkor (189 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1127 ta), sanoatda (867 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (622 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (221 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (37 ta), sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (77 ta) hamda tashish va saqlashda (105 ta) tashkil etilgan.


### **Oilaviy korxonalar**

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1- sentyabr holatiga 1052 tani tashkil etib, ulardan 1025 tasi yoki 97,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 98,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## **Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda**




## **Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 31,5 % yoki 323 tasi sanoat, 19,5 % yoki 200 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,0 % yoki 185

tasi savdo, 16,9 % yoki 173 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,1 % yoki 32 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,7 % yoki 17 tasi qurilish, 0,9 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 6 tasi axborot va aloqa hamda 7,8 % yoki 80 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa axborot va aloqa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>391</b>	<b>100</b>
Qarshi sh.	58	14,8
Shahrisabz sh.	64	16,4
<i>Tumanlar:</i>		
G'uzor	0	0
Dehqonobod	0	0
Qamashi	16	4,1
Qarshi	44	11,3
Koson	7	1,8
Kitob	15	3,8
Mirishkor	3	0,8
Muborak	7	1,8
Nishon	13	3,3
Kasbi	5	1,3
Chiroqchi	50	12,8
Shahrisabz	77	19,7
Yakkabog'	32	8,2

2019-yil yanvar-avgust oylarida 391 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,0

martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Shahrисабз tuman (77 ta), Shahrисабз shahar (64 ta), Qarshi shahar (58 ta) va Chiroqchi tumanlari (50 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mirishkor (3 ta), Muborak (7 ta) hamda Koson (7 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### 2019-yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 37,3 % yoki 146 tasi sanoat, 22,3 % yoki 87 tasi savdo, 19,2 % yoki 75 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,1 % yoki 55 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,3 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 4 tasi qurilish, 0,5 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 3,3 % yoki 13 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish bo'lumi  
Tel.:71-230-84-10 (11)**